

**QO'RG'ONTEPA SUV OMBORI EKSPLUATATSIYASINI YAXSHILASH
BO'YICHA CHORA TADBIRLAR**

“TIQXMMI” Milliy tadqiqotlar universiteti doktoranti

Ulashov Q.Ch

*“TIQXMMI” Milliy tadqiqotlar universitetining Qarshi irrigatsiya va
agrotexnologiyalar instituti*

GTI va NSF ta'lim yo'nalishi talabalari

Xidirov F.A

Shoymurodov Sh.Sh

Annotatsiya : *Maqolada Qo'rg'ontepa suv omboridan foydalanish davridagi yo'l qo'yilayotgan asosiy kamchiliklari va suv omborni ishonchli ishlashi uchun unga qo'yiladigan asosiy talablari keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *Suv ombor, ishonchlilik, tashqi va ichki omillar, gidrotexnika inshootlari, ishonchlilik ko'rsatkichlari.*

**МЕРЫ ПО УЛУЧШЕНИЮ ЭКСПЛУАТАЦИИ КОРГОНТЕПИНСКОГО
ВОДОХРАНИЛИЩА**

Абстрактный: *В статье представлены основные недостатки Кургонтепинского водохранилища при его использовании и основные требования к надежной эксплуатации водохранилища.*

Ключевые слова: *водохранилище, надежность, внешние и внутренние факторы, гидротехнические сооружения, показатели надежности.*

**MEASURES TO IMPROVE THE OPERATION OF THE ORG'ONTEPA WATER
RESERVOIR**

Annotation: *The main shortcomings of the Kurgontepa reservoir during its use and the main requirements for reliable operation of the reservoir are presented in the article.*

Keywords: *Reservoir, reliability, external and internal factors, hydrotechnical facilities, reliability indicators*

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 25 oktabrda «Qishloq xo'jaligida suv tejovchi texnologiyalarni joriy etishni rag'batlantirish mexanizmlarini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida» PQ-4499-sonli qarorida suvdan unumli foydalanish va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yitishtirish va

sugʻoriladigan yerlardan samarali foydalanish belgilab qoʻyilgan va uning ijrosi taminlanmoqda.[1]

Irrigatsiya tizimlarini kafolatlangan suv bilan taʼminlash koʻp jihatdan gidrotexnika inshootlarining ishonchli va xavfsiz ishlashiga bogʻliq. Yirik va oʻrta gidrotexnika obyektlarining asosiy qismi 1960-1980 yillarda qurilib, foydalanishga topshirilgan Gidrotexnika inshootlari xavfsizligi va foydalanishga yaroqliligi ulardan foydalanish sharoitiga, nazorat qilinishiga, oʻz vaqtida taʼmirlab, rekonstruksiya qilinishiga bogʻliq.

Ishning maqsadi: Qoʻrgʻontepa suv omboridagi gidrotexnika inshootlarining loyihaviy maʼlumotlarini oʻrganish, undan foydalanish davridagi kamchiliklarni aniqlab, taxlil qilish, meyoriy hujjatlar asosida, ekspluatatsiyasini yaxshilash boʻyicha mualliflar oʻz fikir va mulohazalarini berishgan.

Qoʻrgontepa suv ombori Oʻzbekiston Respublikasi Fargʻona viloyatining Oltiariq tumani xududida qurilgan. Joylashgan oʻrniga koʻra suv olib kelib toʻldiriladigan suv ombori turiga kiradi. Suvni mavsumiy rostlaydi. Suv ombori Shoximardonsoydan va Oltiariqsoydan suv olib keluvchi kanal orqali olib kelinadigan suv bilan toʻldiriladi.

Suv omborini qurishdan asosiy maqsad Fargʻona viloyatining Oltiariq va Rishton tumanlaridagi sugʻoriladigan 8 ming gektar yerning suvga boʻlgan talabini yaxshilaydi va yangi yerlarni oʻzlashtirishga sharoit yaratadi.

Qoʻrgontepa suv ombori xududi QMQ-II-7-81 ga koʻra 8-balli seysmik mintaqaga kiradi. Mustaxkamlik kategoriyasiga koʻra suv omboridagi barcha gidrotexnika inshootlari II-sinfga xos.

Qoʻrgontepa suv ombori 2-qismdan iborat: birinchi qismi Arap-tepasoy xavzasida, ikkinchi qismi Kemkulsoy xavzasida joylashgan. Arap-tepasoy xavzasida joylashgan qismi 1975-1977 yillarda qurilib, 1978-yilda foydalanishga topshirilgan, Kemkulsoyda joylashgan qismi 1980-1981 yillarda qurilib, 1981-yilda foydalanishga topshirilgan.

Toʻgʻonning pastki qiyaligida (toʻgʻondan 100-150 m masofada) juda koʻp sonli, boshqarilmaydigan buloqlar mavjud. Ularning suv sarflari 0,01 l/s dan 1,0 l/s gacha, ayrim uchastkalarda yer sirti botqoqqa aylanmoqda.

Drenaj. Chap qirgʻoqdagi drenaj (PK1)da sarfi 1,0l/s atrofida. Suv olib ketuvchi drenajda suv oʻlchash qurilmasi yoʻq. Drenajning chuqurligi va uzunligi yetarli emas, Yuqoridagi birinchi chiziqda 1 va 4 quduqlar orasi quruq, ikkinchi chiziqdan chiqishda 2 quduq atrofida sarf 5 l/s, bu uchastkada suv oʻlchash qurilmasi yoʻq. Quyiyoqda qum tutgich va suv oʻlchash qurilmasi joylashgan. Qum tutgichdagi vodosliv tarirovka qilinmagan. Vodoslivdan oldinroqdan sugʻorishga suv olinadi.

Oʻng qirgʻoq drenajidagi oʻrnatilgan vodoslivtalabga javob bermaydi. Drenaj tizimi samarasiz ishlaydi, joylaridan soʻndirigich va olib ketuvchi kanalga suv chiqib yotibdi.

Chap qirg'og'dagi suv olib ketuvchi drenajni chuqurlashtirish, unda suv o'lchash qurilmasini qurish, drenaj suvlarini botqoqlashgan uchastkadan pastroqqa olib ketish;

K1 va K4 quduqlar orasidagi drenaj chiziqlarini chuqurlashtirish (tozalash), ikkinchi chiziqdan chiqishda K2 atrofida suv o'lchash qurilmasini qurish; suv o'lchash qurilmasidan oldin sug'orishga suv olishni ta'qiqlash, mavjud vodoslivning suv o'tkazishini tekshirish (tarirovka qilish); shu ishlar amalga oshirilsa suv omboridagi drenaj quduqlarining ishlash sharoiti ancha yaxshilanadi.

Xulosa: Yuqorida ko'rsatilgan ma'lumotlar o'z vaqtida ekspulatatatsiya qilinsa Qo'rg'ontepa suv ombori davomiyligini yanada ko'proq yil foydalanish uchun hizmat qiladi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi to'g'risida". O'zbekiston Respublikasi Qonuni. Toshkent, 1999 y., 20 avgust.

2. Bakiev M.R. va b.q. Gidrotexnika inshootlari. Darslik. T., "Yangi asr avlodi", 2009 y., 2-jild.

3. Galyamin Ye.P., Natalchuk M.F., Surin V.A. Gidromeliorativ sistemalarini ekspulatatatsiya qilish yullari, 1986. -№5. - s.49-51.